

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR MILLIY TILNING LEKSIK BOYLIGIDIR

Badalov Faxriddin Abdalimovich

O‘zDJTU katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tildagi frazeologik birliklar, uning sohalari. frazeologik birliklar tushunchasining turli tillarda turli termin va izohlar yordamida berilishi, ushbu termin zamirida juda ko‘plab leksik birliklarni uchratish mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, sohalar, terminlar, izohlar, leksik birliklar, idiomalar, matallar, maqollar, yozuvchilar aforizmlari, qanotli satrlar, milliy xususiyat.

Аннотация: В данной статье обсуждается фразеологические единицы в языке, его области. Понятия фразеологических единиц даются на разных языках с использованием различных терминов и интерпретаций, в основе которых может быть множество лексических единиц.

Ключевые слова: фразеологические единицы, области, термины, толкования, лексические единицы, идиомы, пословицы, афоризмы писателей, крылатые слова, национальные черты.

Abstract: This article discusses phraseological units in a language, its domain. The concepts of phraseological units are given in different languages using various terms and interpretations, which can be based on many lexical units.

Keywords: phraseological units, areas, terms, interpretations, lexical units, idioms, proverbs, writers' aphorisms, winged words, national traits.

Hozirgi kunga kelib dunyo tilshunosligida barchamizga ma'lum bo'lgan frazeologiya sohasi keng qamrovda tushunilmoqda uning ko'lami tobora kengayib , boyib bormoqda, ya'ni frazeologiya qatlamiga nafaqat frazeologik turg'un birliklar, balki, maqol va matallar, naql va latifalar ham mansub bo'lishi ta'kidlanmoqda. Ushbu birliklar orqali xalqning hayotiy muammolari, mehnat-mashaqqatlari, g'am-anduhlari, rohat-farog'atlari, muvaffaqiyat-majburiyatlari, rasm-rusumlari kabilar ifodalanadi. Shu o'rinda milliy til tushunchasiga e'tibor qaratishni lozim topamiz. Milliy til bu umumiy hudud, iqtisod va ma'naviy boylik bilan birga millatni tashkil etuvchi ijtimoiy-tarixiy kategoriya. Millatning o'zaro aloqa vositasi hisoblangan Milliy til 2 shaklga ega: ogzaki va yozma. Milliy til qabila, elat tillaridan farqlanadi. U odatda, millatni birlashtirib turuvchi yagona til vazifasini bajaradi. "Milliy til" tushunchasi tilning yashash shakllariga aloqadordir, u til mavjudligining alohida turi bo'lib, mavjudlikning boshqa tur(lar)iga (urug', kabila yoki elat tiliga), shuningdek, boshqa Milliy tillarga qarama-qarshi qo'yilishi (mas, o'zbek tilining qozoq tilidan farqlanishi) mumkin. Har bir millat o'z tiliga ega. Ba'zan bir millat bir necha tilga ega bo'lishi mumkin: belgiyaliklar — bir millat, lekin fransuz va vallon tillarida so'zlashadi. Shveysariyaliklar — yagona millat, lekin ular nemis, fransuz, italyan va retoroman Milliy tillarida so'zla-shadi. Aksincha, bir necha millatlar bir Milliy tildan foydalanadilar, xususan, AQSH, Angliya, Avstraliya va boshqa inglizcha so'zlashuvchi mamlakatlarda ingliz Milliy tilining variantlari, ya'ni britaniya ingliz, amerika ingliz, avstraliya ingliz variantlari qo'llanadi. Milliy tilning hosil bo'lishi uzoq va murakkab jarayondir. Milliy tilning

shakllanishidagi eng oliy bosqich milliy adabiy til hisoblanadi. Biroq Milliy til adabiy tildan farqdanib, og‘zaki nuqt va xalq shevalarini ham o‘z ichiga oladi [<https://uz.wikipedia.org/wiki>].

Frazeologik birliklarning tarkibi [yoki turlari] to‘g‘risida tilshunos A.I.Yefimov quyidagicha fikr bildiradi: «Frazeologik vositalarga nafaqat idiomalar, balki, matallar, maqollar, yozuvchilar aforizmlari, she‘rlardagi qanotli satrlar, ilmiy-texnik xarakterdagi formulalar va til qurulumalari, ba‘zi ishlab chiqarish-texnik iboralarning kanselyariya shtamplari va shu kabilar kiradi» [Yefimov, 1952 ; 63].

Ta‘kidlash lozimki, ushbu birliklar ma‘nolarining hosil bo‘lishi jihatidan juda qadimiy hisoblanadi. Bu ko‘hna xalq ijodini qachon, qanday va kim tomonidan yaratilganini aniq aytish qiyin. Faqat shuni aytish mumkinki, bu sodda va murakkab, turg‘un va barqaror iboralarni, ixcham, lo‘nda va chuqur mazmunli shakllar-birliklarning yaratilishida ijodkor, fozilu-fuzolalarning, hassos shoirlarning hissalarini ham katta.

Frazeologiya sohasi va frazeologik birliklar tushunchasi barcha tillarda turli termin va izohlar yordamida beriladi, masalan, o‘zbek tilida ularni turg‘un birliklar, iboralar, qanotli so‘zlar [Rahmatullayev, 1992 ; 14] kabi izohlansa, fransuz tilida frazeologiya tushunchasini ifodalaydigan va keng tarqalgan termin «Locution»dir. Bu termindan tashqari locution figée, expression idiomatique kabi terminlar mavjud, lekin bularning hammasini ham qoniqarli deb bo‘lmaydi.

«Frazeologik birlik» terminiga mos «locution phraséologique» va «unité phraséologique» terminlarini Shveysariyalik mashhur olim Sharl Balli kiritgan, ammo hozirgi zamon tilshunosligida bu terminlar bir qancha o‘zgarishlarga duch kelgan. Sh. Balli ko‘targan asosiy frazeologik muammolar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Lekin shuni aytish lozimki, bu muammolar fransuz tadqiqotchilari tomonidan chuqur va har tomonlama o‘rganilgan tadqiqot, deb ayta olmaymiz. Chunki, hozirgi zamon tilshunosligida, aynan, frazeologiya sohasining o‘zida ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda va uning yangi qirralari ochilmoqda, jumladan, fransuz va o‘zbek tillari qiyosida yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur birliklarning o‘rganilish darajasi to‘g‘risida tilshunos A.E. Mamatov shunday yozadi: «Ko‘plab frazeologiya sohasida qilingan tadqiqotlarda asosiy e‘tibor ularning leksik-semantik va grammatik xususiyatlariga qaratilgan bo‘lib, frazeologiyaning semantik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish zaruriyatlari tug‘iladi» [Mamatov, 1991 ; 16]. Ushbu masalaning yechimini tilshunosning keyingi yillarda ushbu soha bo‘yicha bir qator izlanishlar olib borishida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi [Mamatov, 1991 ; 16].

Shu bilan birga olimlar Bushuy T.A. frazeologiya va paremiologiya terminlari va tarixi [Bushuy, 2005 ; 86], Gevorkan A.V. zoonimli FBlarning kelib chiqishi [Gevorkan, 1990 ; 21], Zaxarov A.V. zoxarakteristika muammolari [Zaxarov, 2003 ; 54] kabilar ham frazeologiyaning turli ko‘rinishlarini o‘rganishga harakat qiladilar.

Frazeologik birliklarning aniq bir chegarasi bo‘lmaganligi tufayli ularni o‘rganishda, aniq bir tizimga solishda va ilmiy amaliy tadqiqotlarda bir qancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Ular orasida turli semantik ko‘rinishlarga va stilistik bo‘yoqqa ega bo‘lganlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Har qanday milliy tilning leksik boyligini frazeologizmlar tashkil etadi. Bularsiz tilning leksik tarkibini va ona til xususiyatlarini o‘rganish mumkin emas. Til ham ma‘lum bir millatning ma‘naviy boyligi hisobladi.

Ushbu birliklarning rivojlanishi bilan birgalikda ulardan foydalanish nafaqat og‘zaki nutqda, balki, yozma adabiyotda ham keng miqyosda qo‘llaniladi. Ayniqsa, badiiy asarlarda

frazeologizmlar badiiy obraz xarakterni ekspressiv-emotsional ta'riflashda ajoyib uslub bo'lib xizmat qiladi [Teliya, 1996; 80].

Frazeologik birliklarlar ustida keyingi yillarda ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu termin zamirida juda ko'plab leksik birliklarni uchratish mumkin. Ular ma'no jihatidan keng va kelib chiqishi xususiyatidan qadimiy bo'lib, xalq tili lug'at tarkibini boyitib boradi. Mazkur til birliklari kuchli obrazlilikka va emotsionallikka ega bo'lib, insonning obrazli xarakter, ruhiy, etik kechinmalari, ijtimoiy kommunikativ xulq-atvor meyorlari, tashqi ko'rinishi, ichki xis tuyg'ularini ochib berishda nafaqat og'zaki nutqda, balki yozma badiiy adabiyotlarda ham keng miqdorda qo'llaniladi.

Shu o'rinda T.A.Bushuyning fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: «Frazeologiyani yaxshi tushunish badiiy adabiyot matnlarini, ommaviy jurnal va gazetalar tilini to'laroq tushunishga yordam beradi» [Bushuy, 2005 ; 225]. Frazeologizmlarning tilda tutgan o'rni, ularning keng ko'lamda qo'llanilishi to'g'risida rus olimi B.A.Larin quyidagicha fikr bildiradi: «Frazeologizmlar doimo xalqning qarashlari, jamiyat tizimi o'z davriga bo'lgan munosabatlarni tasvirlaydi» [Larin, 1987 ; 156].

Yo'qoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi o'ziga xos urf-odat va an'analari tili madaniyati va qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Xalqning vatani davlati kabi yana bir buyuk ehtimoli, birlamchi boyligi bor, bu uning tilidir. Aynan til odamlar guruhining bir millat sifatida biriktiradi ya'ni xalqni xalq millatni millat qila oladi shu o'rinda frazeologik birliklarning milliy tilida o'rni judayam beqiyosligini yana bir marta ta'kidlash joiz. Demak, tilning milliy xususiyatlarini o'zida mujassam etadigan frazeologizmlar xalqning boy tarixi an'analarini, mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ko'rinishlarini va insonlarning hayoti va madaniyatini o'z ichiga oladi va uning leksik bouligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bushuy A. Frazeologiya va parmiologiya tarixidan. Til va adabiyot ta'limi. 2005. № 4.
2. Бушуй Т.А. О взаимодействии фразеологической семантики контекста. Преподавание языка и литературы. 2005. №4. S.47.
3. Gevorkan A.V. Semantika, struktura i proisxojdnie frazeologicheskix yedinis s zoonimami. A. 1990.
4. Ефимов А.И. Об изучению языка художественных произведений. М.: 1952.
5. Ларин Б. А. Очерки по фразеологии (О систематизации и методах исследования фразеологических материалов) М., 1987.
6. Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. - М., 1977.
7. Mamatov A.E. Очерки по французской фразеологической стилистике. Ташкент. «O'qituvchi» 1991.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent: «Qomuslar bosh tahririyati». 1992. –380 b.
9. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты М., 1996
10. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.

11. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 3001-3007.
12. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan // *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*. – 2019. – T. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.
13. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
14. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE // *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS*. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
15. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
16. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
17. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
20. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
21. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
22. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
23. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
24. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
25. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023)